

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**JIZZAX VILOYATINING
IJTIMOIY-IQTISODIY HOLATI AXBOROTNOMASI**

**2024-YIL
YANVAR-DEKABR**

Jizzax – 2025-y.

SO‘Z BOSHI

Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi Jizzax viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Jizzax viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2024-yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo‘yicha Jizzax viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B, C, D, E, F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (A seksiyasi “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

Qisqartma va shartli belgilar

| | | | | | |
|-------------------|---|---------------------------|-----------------|---|--------------------------|
| YaHM | – | yalpi hududiy mahsulot | l | – | litr |
| foiz | – | % | 0,0 | – | katta bo‘lmagan miqdor |
| mlrd | – | milliard | m. | – | marta |
| mln | – | million | – | – | ko‘rsatkichning yo‘qligi |
| mln AQSH doll. | – | million AQSH dollari | Ga | – | gektar |
| kv | – | kvadrat | t | – | tonna |
| km | – | kilometr | 1), 2), 3)..... | – | izohning mavjudligi |
| m | – | metr | | | |


MUNDARIJA

| Nomi | bet. |
|--|----------------|
| ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR | 5 |
| I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT | 6–14 |
| II. SANOAT | 15–30 |
| III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI | 31–48 |
| IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI | 49–64 |
| V. XIZMATLAR | 65–81 |
| VI. TRANSPORT | 82–85 |
| VII. ISTE‘MOL BOZORI | 85–98 |
| VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT | 99–113 |
| IX. KICHIK TADBIRKORLIK | 114–117 |
| X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI | 118–129 |
| XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI | 130–142 |
| XII. DEMOGRAFIK HOLAT | 143–152 |
| XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI | 153–161 |

Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2024-yil yanvar-dekabr

| <i>Ko'rsatkichlarnomi</i> | <i>Mlrd so'm</i> | <i>2023-yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i> |
|---|------------------|---|
|  Yalpi hududiy mahsulot | 43 057,9 | 105,3 |
|  Sanoat mahsuloti | 25 812,4 | 107,2 |
|  Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari | 30 146,1 | 101,2 |
|  Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 23 058,6 | 141,5 |
|  Qurilish ishlari | 6 279,4 | 107,8 |
|  Yuk aylanmasi (mln tn–km) | 1 109,0 | 100,5 |
|  Yo'lovchi aylanmasi (mln yo'lovchi.–km) | 2 650,0 | 101,1 |
|  Chakana savdo tovar aylanmasi | 11 590,6 | 109,5 |
|  Xizmatlar, jami | 20 069,5 | 113,8 |
|  Tashqi savdo aylanmasi, (mln AQSH doll.) | 2 010,4 | 140,4 |
|  Eksport | 208,1 | 118,5 |
|  Import | 1 802,3 | 143,4 |
|  Saldo (+,-) | -1 594,2 | x |

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, viloyatda 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 43 057,9 mlrd soʻmni tashkil etdi. YaHMning oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 105,3 foizni tashkil etdi.



2022-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning deflyator indeksi

2022-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning oʻsish surʼatlari

(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan foizda)




Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy koʻrsatkichi boʻlib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yalpi qoʻshilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yigʻindisi orqali hisoblanadi.




2022-2024yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHM o'sish (kamayish) sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)


YaHM




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Xizmatlar



Sanoat



Maxsulotlarga sof soliqlar




**2024- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda**

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 101,3 foiz, (YaHM tarkibidagi ulushi 40,5 foiz), sanoat – 107,2 foiz (17,3 foiz), qurilish – 107,8 foiz (6,2 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 117,5 foiz (13,5 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 116,0 foiz (3,8 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 102,1 foiz (18,7 foiz) ni tashkil qildi.



**2024- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 28 281,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 foizga o'sdi.



2024- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

| Ko'rsatkichlarnomi | Mlrd so'm | | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|--|-----------------|-----------------|---|
| | 2023- yil | 2024- yil | |
| I. YaHM | 37 383,2 | 43 057,9 | 105,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 36 390,6 | 42 133,2 | 105,3 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 992,6 | 924,7 | 105,2 |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 36 390,6 | 42 133,2 | 105,3 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 15 766,0 | 17 083,9 | 101,3 |
| Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 8 368,6 | 9 900,9 | 107,4 |
| sanoat | 6 042,8 | 7 284,9 | 107,2 |
| qurilish | 2 325,8 | 2 616,0 | 107,8 |
| Xizmatlar | 12 256,0 | 15 148,4 | 109,0 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 4 391,6 | 5 688,3 | 117,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 237,1 | 1 602,2 | 116,0 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 6 627,3 | 7 857,9 | 102,1 |

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.



**2024- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



| | <i>Ko'rsatkichlarnomi</i> | 2023- yil | 2024- yil |
|---|---|--------------|--------------|
| | I. YaHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| | <i>Shu jumladan:</i> | | |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 97,3 | 97,9 |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar | 2,7 | 2,1 |
| | II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
|  | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 43,3 | 40,5 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 23,0 | 23,5 |
|  | sanoat | 16,6 | 17,3 |
|  | qurilish | 6,4 | 6,2 |
| | Xizmatlar | 33,7 | 36,0 |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 12,1 | 13,5 |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 3,4 | 3,8 |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 18,2 | 18,7 |

2024- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,9 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YaHM tarkibidagi ulushi 40,5 foizni, sanoat tarmogʻi 17,3 foizni, qurilish 6,2 foizni va xizmatlar sohasi 36,0 foizni tashkil qildi.




Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi
yanvar-dekabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)







● Yalpi qoʻshilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar




2023-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 101,3 % (YaHM-tarkibidagi ulushi – 40,5 %), sanoatda – 107,2 % (17,3 %), qurilishda – 107,8 % (6,2 %), xizmatlar sohasida – 109,0 % ni (36,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 117,5 % (13,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 116,0 % (3,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,1 % (18,7 %) ni tashkil qildi.




■ 2023-yil
■ 2024-yil



2023-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,4% ni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 113,4 % va sanoatda – 112,5 % qayd etildi.




Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jami ga nisbatan foizda)

2023- yil yanvar-dekabr




2024- yil yanvar-dekabr



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2024- yil yanvar – dekabr oylarida – 13,5 foizni (2023- yil yanvar – dekabrda – 12,1 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 3,8 foizni (3,4 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 18,7 foizni (18,2 foiz) tashkil etdi.



2023-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va YaHMdagi ulushi

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 31 375,3 mlrd so'mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida – 27 406,2 mlrd so'm). YAHMdagi ulushi 74,5 % ni (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida – 75,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan bog'liq.

